

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30/01.2020.PED26.01. RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**DELOV TO‘LQIN ERKINOVICH**

**RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA IQTIDORLI TALABALARNI ANIQLASH,  
ULAR BILAN ISHLASH USUL VA VOSITALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.06 – Raqamli ta‘lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Delov To‘lqin Erkinovich**

Raqamli ta’lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash usul  
va vositalarini takomillashtirish..... 3

**Делов Тулкин Эркинович**

Совершенствование методов и средств отбора одаренных студентов,  
работа с ними в цифровой образовательной среде..... 23

**Delov Tulkin Erkinovich**

Improving the methods and means of selecting gifted students, working with  
them in a digital educational environment ..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30/01.2020.PED26.01. RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**DELOV TO‘LQIN ERKINOVICH**

**RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA IQTIDORLI TALABALARNI ANIQLASH,  
ULAR BILAN ISHLASH USUL VA VOSITALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.06 – Raqamli ta‘lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped 2040.raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Professional ta’limni rivojlantirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tatunf.uz](http://www.tatunf.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Zakirova Feruza Maxmudovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mamarajabov Mirsalim Elmirzayevich**  
Pedagogika fanlari doktori, professor

**Taylakova Guli Bekmurodovna**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80- 86; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79- 11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2025 yil“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**Z.N.Mamarajabova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

**R.G.Isyanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, t.f.n., dotsent

**M.E.Mamarajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda ta'lim tizimiga e'tibor barcha mamlakatlar uchun iqtisodiyotni rivojlantirish va sohalarda raqobatbardosh iqtidorli kadrlar faoliyatini ta'minlash maqsadida raqamli texnologiyalardan samarali va o'rinli foydalanishni rivojlantirish texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Mazkur jarayonlar jamiyatda iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlash mexanizmlarini yanada takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yevropa ittifoqi Parlament Assambleyasining qonunchilik yig'ilishidagi 1248-sonli qaroriga binoan iqtidorli talabalarni tarbiyalashda ta'lim tizimi insonning huquqiy negizini rivojlantirayotganini, iqtidorli talabalar o'z ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim sharoitlaridan o'z manfaatlari va jamiyat maqsadlari uchun to'liq foydalanish imkonini aniqlash yo'lida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahonda iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, iqtidorli talabalarning intellektual, ijodiy hamda shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash, ular bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish va ushbu jarayonlarni raqamlashtirish vazifalarini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashda simulyatsion o'qitish (Simulation-based learning), yangi virtual va kengaytirilgan reallik kabi dasturiy va texnik vositalardan keng foydalanish, ularni amaliyotga joriy etishning samaradorligini va natijadorligini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlash usul va vositalarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda ta'lim sohasini rivojlantirishda yuqori intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ... iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish<sup>1</sup> ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlashning usul va vositalarini takomillashtirish, didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, shuningdek masofaviy ta'limning simultant va multimodal modeli kabi zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalarini amaliyotda keng joriy etishning imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020- yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019- yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2023- yil 3-iyuldagi PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 10-dekabrda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

PQ-42-son “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 31-avgustdagi 556-son “Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa mazkur sohaga tegishli bo‘lgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda iqtidorli talabalarni aniqlash, rag‘batlantirish va ular bilan ishlashga doir belgilangan vazifalarni hal etishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy - ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq etish, elektron ta‘lim muhitini tashkil etish va boshqarish, bilan bog‘liq masalalar A.Abduqodirov, M.Aripov, U.Begimqulov, M.Lutfillaev, N.Muslimov, F.Zakirova, B.Mo‘minov, S.Beknazarova, M.Fayziyeva, D.Mamatov, O.Zaripov, T.Shaymardonov, O.Mamarajabov, R.Eshimov, N.Qayumovalar; iqtidorli talabalarni tanlash, ularning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish, masalalari O‘.Xudayberganova, R.Yarmatov, F.Raxmatovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridan A.Andreev, L.V.Lelep, G.N.Fedorova, E.Podsevalova, G.Soldatovalar ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish; I.Morozov, K.Kozlova, O.Kulikova, A.BAsmakovlar elektron ta‘lim jarayonlarini boshqarish modelini takomillashtirish; ta‘lim tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlash A.Kulemzina, L.Redko, E.Shcheblanova, D.Shatalovlar tadqiq etishgan.

Xorijda ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni samaradorligini o‘z ichiga olgan tadqiqotlar S.Brown, E.Edmonds, N.Henze, Adam Swinyardlar; iqtidorli talabalarni tanlash va ularni rivojlantirish J.Renzulli, F.Worrell, Lynette Breedlovelar tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti IL-4721071198-sonli loyihasi doirasida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining o‘quv jarayonida “3D texnologiyalari asosida axborot texnologiyalari bo‘yicha milliy virtual universitet yaratish” mavzusida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishi doirasida bajarilgan (2022-2023- yillarga mo‘ljallangan).

**Tadqiqotning maqsadi** raqamli ta‘lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash usul va vositalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

raqamli ta‘lim muhitida iqtidorli talabalar bilan ishlashning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash usul va vositalarining raqamli portfoliosi mazmunini takomillashtirish;

raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning pedagogik modelini takomillashtirish;

iqtidorli talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirish metodikasi masofaviy ta'limning Simultant va multimodal modellarini qo'llagan holda takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash usul va vositalarini takomillashtirish jarayoni hisoblanib, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali oliy ta'lim muassasalaridan jami 560 nafar talabasi ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash usul va vositalarini joriy etish mazmuni, metodi va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy (tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogik, psixologik, maxsus adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarni o'rganish; olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, modellashtirish); empirik (pedagogik tajriba-sinov, kuzatish, so'rovnoma, test o'tkazish); matematik (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, korrelyatsion tahlil va noparametrik tekshirish usullari) usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalar bilan ishlashning didaktik imkoniyatlari tashkiliy-uslubiy muvofiqlik, pozitiv innovatsion potensialni oshirish, o'z-o'zini rivojlantirishning raqamli kompetentligining o'ziga xos xususiyatlarini tasniflash hamda iqtidorni o'rganish usullari va qo'llab-quvvatlash strategiyasiga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash usul va vositalarini takomillashtirish mexanizmi hujjatlarni elektron shaklda tizimli taqdim etish, ularni ochiqqligini, ishonchliligini va funkcionalligini ta'minlab beruvchi RAIL modelini qo'llash orqali raqamli portfolioni ishlab chiqish va mazmunini innovatsiyalar yaratish, ijodkorlikni rivojlantiruvchi, jamoaviy va hamkorlikda ishlash yondashuvlariga asoslangan tamoyillarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning pedagogik modeli tashkiliy-jarayonli komponentini identifikatsiyalash, saralash va rivojlantirish jarayonlarini samaradorligini oshirishga qaratilgan raqamli portfolio, dizayn fikrlash hamda startaplarni mazmunli-texnologik integratsiyalash, mualliflik mobil dasturini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

iqtidorli talabalarni raqamli kompetentligini rivojlantirish metodikasi masofaviy ta'limning simultant va multimodal modellarini qo'llash asosida vacademia.uz muhitidagi V-sinf, V-doska, V-chat va V-simulyasiya

komponentlarini funksional integratsiyalash hamda iqtidorlilikni aniqlovchi motivatsion, innovatsion-tadqiqot, liderlik va tashabbuskorlik mezonlarini baholash darajalariga muvofiqligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

iqtidorli talabalarni aniqlashda hujjatlarni elektron shaklda tizimli taqdim etish, ochiqlik, hamda ularni ishonchliligini ta'minlash maqsadida "gifted\_student.uz" raqamli portfoliosi ishlab chiqilgan;

iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi faoliyatini avtomatlashtirish maqsadida mobil ilova yaratilgan;

raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlash jarayonini samarali tashkil etish maqsadida "Iqtidorli talabalarni aniqlash metodikasi" nomli risola nashr etilgan;

iqtidorli talabalarning zamonaviy raqamli texnologiyalari qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida virtual 3D "vacademia.uz" dasturiy vositasi yaratilib, "Ilmiy ta'lim" fani doirasida virtual kurslar ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy-metodik tomonidan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash mezonlari, usul, vositalari, hamda iqtidorli talabalar bilan ishlashning pedagogik modeli va virtual texnologiyalarni qo'llash asosida o'qitish metodikasini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning pedagogik modelining ishlab chiqilganligi, iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonini avtomatlashtirishga mo'ljallangan mualliflik dasturlari raqamli portfolio va mobil ilovaning yaratilganligi hamda iqtidorli talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirish metodikasi elektron ta'limning simultant va multimodal modellariga virtual ta'lim texnologiyalarini integratsiya qilish asosida "Ilmiy ta'lim" virtual o'quv kursi tashkil etilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash usul va vositalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalar bilan ishlashning didaktik imkoniyatlari tashkiliy-uslubiy muvofiqlik, pozitiv innovatsion potensialni oshirish, o'z-o'zini rivojlantirishning raqamli kompetentligining o'ziga xos xususiyatlarini tasniflash hamda iqtidorni o'rganish usullari va qo'llab-quvvatlash strategiyasiga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilganga doir tavsiyalar "60611300-Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablarida o'z aksini topgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 04 martdagi № 02/19-658-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash mexanizmi takomillashtirishga xizmat qilgan;

raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash usul va vositalarini takomillashtirish mexanizmi hujjatlarni elektron shaklda tizimli taqdim etish, ularni ochiqligini, ishonchliligini va funksionalligini ta'minlab beruvchi RAIL modelini qo'llash orqali raqamli portfolioni ishlab chiqish va mazmunini innovatsiyalar yaratish, ijodkorlikni rivojlantiruvchi, jamoaviy va hamkorlikda ishlash yondashuvlariga asoslangan tamoyillarini kiritish asosida takomillashtirilganga doir tavsiyalar "Ta'limda raqamli texnologiyalar" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 04 martdagi № 02/19-658-sonli ma'lumotnomasi). Natijada iqtidorli talabalar bilan ishlashning o'quv-uslubiy ta'minoti boyitilgan;

raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning pedagogik modeli tashkiliy-jarayonli komponentini identifikatsiyalash, saralash va rivojlantirish jarayonlarini samaradorligini oshirishga qaratilgan raqamli portfolio, dizayn fikrlash hamda startaplarni mazmunli-texnologik integratsiyalash, mualliflik mobil dasturini ishlab chiqish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar 610170-EPP-1-2019-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP ELBA - "Markaziy Osiyoda katta hajmli ma'lumotlarning intellektual tahlili bo'yicha o'quv-tadqiqot markazlarini ochish va kurslarni ishlab chiqish" mavzusidagi loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 04 martdagi № 02/19-658-sonli ma'lumotnomasi). Natijada iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi faoliyati yuqori darajaga ko'tarilgan;

iqtidorli talabalarni raqamli kompetentligini rivojlantirish metodikasi masofaviy ta'limning simultant va multimodal modellarini qo'llash asosida vacademia.uz muhitidagi V-sinf, V-doska, V-chat va V-simulyasiya komponentlarini funksional integratsiyalash hamda iqtidorlilikni aniqlovchi motivatsion, innovatsion-tadqiqot, liderlik va tashabbuskorlik mezonlarini baholash darajalariga muvofiqligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflar Bulutli texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 04 martdagi № 02/19-658-sonli ma'lumotnomasi). Natijada iqtidorli talabalarning raqamli kompetentligi rivojlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy-uslubiy ish chop etilgan, shu jumladan, OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 ta Respublika, 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

**Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, 3 ta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 120 sahifadan iborat.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertasiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalar bilan ishlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari, raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning didaktik imkoniyatlari va iqtidorli talabalarni aniqlashda raqamli muhit usul va vositalari sifatida ochib berilgan.

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida yuqori intellektual salohiyatga ega va iste'dodli yoshlarni rag'batlantirishga, iqtidorli talabalarni aniqlashda raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy talablarga javob beradigan raqamli portfoliolar va mobil ilovalarini yaratish, ularni ta'lim jarayonida qo'llashga oid vazifalarga hukumat darajasida yuksak e'tibor qaratilmoqda.

J.S.Renzulli, A.Kulemzina, V.D.Shadrikova, R.Yarmatov, L.Redko, Lynette Breedlove, O'.Xudayberganova va boshqa bir qator olimlarning tadqiqotlarida, iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi. Insonlardagi tug'ma va orttirilgan qobiliyatini o'rganib chiqib, “iqtidor-bu har qanday insonning yuqori qobiliyatidir, ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishda ko'proq yoki kam muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'lgan imkoniyatlarning sifat jihatdan o'ziga xos birlashmasidir” deb Adam Swinyard va B.M. Teplovning tadqiqotlarida ta'riflangan. Talabalarning psixologik va individual sifatleri darajasining bir xil emasligi, ularning ayrimlari tomonidan juda tez o'zlashtirilayotgan o'quv materialining ba'zi talabalar tomonidan qiyin o'zlashtirayotganligi, buning natijasida qobiliyatli talabalar vaqtlarining samarasiz sarflanishi ularni tabaqalashtirilgan holda o'qitilishi maqsadga muvofiq ekanligi O'.B.Xudayberganovanning tadqiqotlarida, veb ilovalar va mobil ilovalar ta'limning turli sohalarida qo'llanilishi va ayniqsa iqtidorli talabalarning mustaqil ta'limida yaxshi samara berishi mumkinligi F.Khaddage va S.Lattenmanlarning tadqiqotlarida ko'rsatilgan.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bugungi kunda iqtidorli talabalarni aniqlash borasida katta tajribalarga ega. Ta'lim tizimida iqtidorli talabalarni aniqlash va ularga ta'lim berishga oid ko'plab metodikalar mavjud bo'lib, ulardan Gauenaning Zahiraviy modeli, Slosson testi, Veksler shkalasi, Torrens (I) va (II) ijodiy testlari tahlil qilindi.

Iqtidorli talabalarni aniqlashning an'anaviy usullari nomdor stipendiyalarga taqdim etishda va ularni ishlarini ko'rib chiqishda ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ya'ni iqtidorli talabalarni aniqlashning usul va vositalari barcha shakllarini to'laqonli amaliyotga kiritish orqali ularning kreativ salohiyatini

rivojlantirishni ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Bugungi kunda ushbu usullarni raqamli ta'lim muhitiga moslashtirish lozim.

Yevropa Komissiyasining qo'shma tadqiqot markazi ma'lumotlariga ko'ra raqamli ta'lim muhiti - bu o'quvchilar, o'qituvchilar va ma'murlarga bilimlarni egallash va almashish, ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quv mazmunini yaratish va tashkil etishda yordam beradigan raqamli vositalar, tizimlar va resurslar to'plami. Raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash va yaxshilash uchun texnologiya keng qo'llaniladigan ta'lim muhitini anglatadi. U onlayn ta'lim, virtual sinflar va masofaviy ta'limning turli jihatlarini qo'llab-quvvatlaydigan keng ko'lamli raqamli vositalar, platformalar va resurslarni o'z ichiga oladi. Raqamli ta'lim muhitida talabalar va o'qituvchilar raqamli vositalar orqali o'zaro elektron hujjat almashishni tizimlashtirish, ularni ochiqiligi, shaffofligi va ishonchligini ta'minlashda foydalanadilar.


Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash ularning qobiliyati hamda salohiyatini to'g'ri baholash uchun puxta o'ylab ko'rish va turli usul va vositalardan foydalanishni talab qiladi. Buning uchun foydalanish mumkin bo'lgan rasmiy baholashlar, onlayn kognitiv testlar, raqamli portfellar va loyihalar, o'qituvchining kuzatishlari, ota-onalar va tengdoshlar nominatsiyasi, qiziqishlar va iste'dodlar inventarlari, onlayn boyitish dasturlari o'z-o'zini baholash kabi ba'zi usul va vositalar o'rganilgan.

Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashda ba'zi pedagogik muammolar va potensial yechimlar tahlil qilindi. Ushbu pedagogik muammolarni tan olish va hal qilish orqali o'qituvchilar iqtidorli talabalarning ehtiyojlarini qondiradigan inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi raqamli ta'lim muhitini yaratishi mumkin. Bu iqtidorli talabalarning rivojlanish uchun zarur bo'lgan murakkab va boyituvchi ta'lim olishlarini ta'minlash uchun o'ylangan identifikatsiyalash jarayonlari, individuallashtirilgan ko'rsatmalar, qiziqarli o'quv tajribasi va doimiy kasbiy rivojlanishning kombinatsiyasini talab qiladi.

Tadqiqot davomida raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning didaktik imkoniyatlari tashkiliy-uslubiy muvofiqlik, pozitiv innovatsion potensialni rivojlantirish hamda o'z-o'zini rivojlantirish strategiyasiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirildi. Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning didaktik imkoniyatlarida uchta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

Tashkiliy-uslubiy muvofiqlik - bu ta'lim jarayonini samarali va aniq tashkil etish uchun foydalaniladigan uslub va usullar majmuasi. Bu yo'nalishda ta'lim jarayonidagi metodlar, rejalar va vositalar o'quvchilarning ehtiyojlariga va imkoniyatlariga muvofiq keladi. Pozitiv innovatsion potensialni rivojlantirish - bu ijodiy tafakkurni rag'batlantirish, yangi g'oyalar va yondashuvlarni qabul qilish, ta'lim va tadqiqotlar orqali yangi imkoniyatlar yaratish demakdir. Ushbu jarayon talabalarning yangilikka intilishini va yangi innovatsion g'oyalarni amalga oshirish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. O'z-o'zini rivojlantirish strategiyasi - bu shaxsning mustaqil ravishda o'qish, o'z maqsadlarini belgilash va ularga erishish orqali shaxsiy o'sish va rivojlanish jarayonidir. Bu strategiya insonning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini va shaxsiy mas'uliyatini oshirishga yordam beradi.

Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirildi (1-rasm).



**1-rasm. Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning didaktik imkoniyatlari**

Tadqiqot davomida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashdagi muammolarni o'rganish maqsadida O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari pedagog, talabalar va xodimlari ishtirokida quyidagi havola orqali so'rovnoma o'tkazildi: <https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSfFfJ6MqhRTOjLTUfQ2TjWQgcURNGKBqvSMUbm9DyJ5JIPiw/viewform?usp=sharing>. Ushbu so'rovnoma natijasi, oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalarni aniqlash jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilishi taklif etilgan.


Iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning rivojlanishini baholashda portfolio yondashuvi ko'plab ilmiy tadqiqotchilar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Iqtidorli talabalarni aniqlash bo'yicha portfolio ishlab chiqqan ayrim mashhur olimlarning ishlari SWOT tahlil qilindi.

Dissertasiyaning ikkinchi "**Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlash usul va vositalarini takomillashtirish**" deb nomlangan bobida raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlash raqamli portfoliosini va mobil ilovasini yaratish texnologiyasi va mazmuni, raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning pedagogik modeli, iqtidorli talabalarni raqamli kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan virtual vositalar va ulardan foydalanish metodikasi ochib berilgan.

Tadqiqotda iqtidorli talabalarni aniqlash vositasi sifatida raqamli portfoliosini ishlab chiqish bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun RAIL (Response, Animation, Idle, Load) modelidan foydalanish taklif etiladi. RAIL modeli foydalanuvchiga yo'naltirilgan ishlash modeli bo'lib, unumdorlik haqida fikr yuritish uchun asos yaratadi. RAIL modeli veb-ilovani hayot aylanishining to'rt xil (javob berish, animatsiya, kutish va yuklash) jihatini anglatadi. Shu sababli, model foydalanuvchi tajribasini asosiy harakatlarga ajratadi va har biri uchun ishlash maqsadlarini aniqlashga yordam beradi.

Raqamli portfolioning mazmuni endilikda shunchaki individual yutuqlar va hujjatlar to'plami emas, balki ijodkorlikni, innovatsion fikrlashni, jamoaviy va hamkorlikdagi faoliyatni aks ettiruvchi, tizimlashtirilgan, dinamik o'zgaruvchan axborot majmuasiga aylantirilgan. Mazmunning bunday chuqurlashtirilgan yondashuvi esa nafaqat iqtidorli shaxsni aniqlashga, balki uni kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har bir iqtidorli talabaning ilmiy va kasbiy faoliyati ko'rsatkichlari raqamli muhitda elektron tarzda qayd etib boriladi. Iqtidorli talabalarning turli xil jurnallarda yakka mualliflik yoki hammualliflikdagi chop ettirgan maqolalari, xalqaro va Respublika konferensiyalarida chop ettirgan tezislari, xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi sertifikatlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, intellektual mulk davlat xizmatlari portali elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi DGU mualliflik guvohnomalari, innovatsion va amaliy loyihalardagi ishtiroki, jamoat ishlarida ishtiroki, turli tadbirlarda olgan sertifikatlariga ma'lum bir kattalikdagi sonlar bilan qiymat berilgan.



**2-rasm. Gifted\_student.uz iqtidorli talabalarning raqamli portfoliosi**

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlash uchun "*Gifted\_student.uz*" raqamli portfoliyo yaratilgan

(DGU №17471). Ushbu raqamli portfolio oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni rivojlantirish jarayonini boshqarishni raqamli muhitda tashkil etish orqali ochiqlilik va taqdim etilgan hujjatlarni ishonchliligini ta'minlaydi (2-rasmga qarang). Birinchi bobda keltirilgan jihatlarni inobatga olib iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning pedagogik modeli takomillashtirildi.

Tadqiqot davomida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti iqtidorli talabalarini ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi faoliyatini mobil vositalar asosida takomillashtirish uchun turli texnologiyalardan foydalanildi. Iqtidorli talabalarni aniqlash tizimini avtomatlashtirish, boshqa talabalarda ham qiziqish uyg'otishda yordam beradi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlashni ta'minlash maqsadida mobil ilova ishlab chiqildi (DGU №28249). Ishlab chiqilgan "TATU student guide" nomli mobil ilovada keltirilgan manbalar asosida talabalar uchun beriladigan imkoniyatlar, stipendiyalar, grantlar va ularni olishda talab qilinadigan hujjatlar haqida to'liq bilib olishga mo'ljallangan.


Yuqorida keltirib o'tilgan jihatlarni inobatga olib raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning pedagogik modelini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilindi (3-rasmga qarang). Model jami to'rtta: maqsadli va mazmunli, didaktik imkoniyatlari, tashkiliy- jarayonli va natijaviy-baholash kabi o'zaro bog'langan qismlarni qamrab oladi. Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlash modeli yondashuvlarga asoslanadi.

Iqtidorli talabalarni o'z-o'zini anglashi ko'pincha ularni tengdoshlaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlar va qobiliyatlarga ega bo'lib, ular shaxsning ko'p qirrali va dinamik jihati hisoblanadi. O'z-o'zini anglash duch keladigan noyob muammolarni tan olish va hal qilish, ijobiy intellektual o'ziga xoslikni rivojlantirish va ularning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash, ularning farovonligini tarbiyalash va to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam berish uchun juda muhimdir.

Bugungi dunyo rivoji jamiyatning har bir a'zosidan ayniqsa yosh avloddan raqamli kompetensiyani mukammal darajada egallashni talab etadi. Buning asosiy sababi globallashtirish jarayonida raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib borayotgani bo'lsa, uning oqibatida internet, turli ijtimoiy tarmoqlar, axborot va ma'lumotlar oqimining haddan ziyodligidir.

Raqamli ta'lim muhiti bu- foydalanuvchilarning ta'limiy manbalariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan, mutaxassislikka tayyorlash jarayonining shaxsiy kompyuterlar, telekommunikatsiya, uslubiy va tashkiliy muhiti sifatida ta'riflanadi. Raqamli ta'lim muhiti innovatsion va interaktiv ta'lim tajribasi uchun moslashuvchanlik, foydalanish imkoniyatlarini taklif etadi.

Tadqiqot davomida raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalar bilan ishlashda ta'limni tashkil etishning ikkita: individual va virtual shakllaridan foydalanildi. Individual ta'lim shaklida talaba o'z ta'limi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, ta'lim tajribasini o'zining maxsus ehtiyojlari, maqsadlari va afzalliklarini qondirish uchun moslashtiradi. Ya'ni, berilgan topshiriqni har bir talaba o'zi mustaqil bajaradi.



3-rasm. Raqamli taʼlim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning pedagogik modeli

Onlayn ta'lim yoki elektron ta'lim sifatida ham tanilgan virtual ta'lim turli xil ta'lim ehtiyojlari va afzalliklarini qondirish uchun turli shakllarda keladi. Virtual ta'lim shakli talabalar uchun moslashuvchanlik, foydalanish imkoniyati va keng ko'lamli resurslarni taklif etadi. Formatni tanlash ta'lim maqsadlariga, mavzuga, o'qituvchilar va talabalarning afzalliklariga bog'liq.

Iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashda mos ravishda raqamli portfoliyo, startap va dizayn-fikrlash usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Raqamli portfoliyo usuli yordamida iqtidorli talabalarning kasbiy kompetensiyalarining shakllanishini namoyon qiladigan materiallar va ma'lumotlar to'plami (ularning ta'lim jarayonida erishgan natijalari, olimpiadalar, tanlovlar, xalqaro va Respublika miqyosida tashkil etilgan konferensiyalardagi ishtiroki va yutuqlari), nashr etilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini (patent, ixtiro, monografiya va boshqa) tasdiqlaydigan turli hujjat, sertifikat, diplom va guvohnomalari, shuningdek, bajarilgan topshiriq loyihalari, tayyorlangan mahsulotlar, videoyozuvlar va hokazolardan iborat materiallari saralab olinadi. Bajarilgan ishlarni baholash talabalarning o'z-o'zini baholashi va ma'sul komissiya tomonidan amalga oshiriladi.


Iqtidorli talabalar bilan ishlashda startap usuli qo'llanilishi ularning iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, real hayotdagi amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan ijodiy va innovatsion pedagogik yondashuvdir. Bu usul iqtidorli talabalarni an'anaviy ta'lim doirasidan chiqib, ular uchun yangi bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini beradi, ularga o'z g'oyalari va loyihalarini amalga oshirishda yordam beradi.

Dizayn-fikrlash (ing. Design - thinking) usuli – tahlilga emas, balki ijodiy yondashuvga asoslangan bo'lib, muhandislik, pedagogik, biznes va boshqa sohalarda qo'llaniladi. Dizayn-fikrlash usulini qo'llash natijasida yangi g'oyalar orqali muammoning yechimi topiladi. Iqtidorli talabalarni intellektual ijodkorligini rivojlantirish bilan birga ularning kasbiy va raqamli kompetentligini rivojlantirishda dizayn-fikrlash texnologiyasidan foydalanish ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning pedagogik modelida zarur pedagogik sharoitlarni yaratish, ushbu sohadagi mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jamiyatning eng muhim ehtiyoji ekanligi qat'iy ta'kidlanadi. Modelning to'rtinchi natijaviy-baholash qismida talabalarni iqtidorliligini baholashning uchta (o'z-o'zini baholash, mas'ul komissiya tomonidan baholash va mexmonlar tomonidan baholash) usullari keltirilgan bo'lib, ular motivatsion, innovatsion-tadqiqot, liderlik va tashabbuskorlik mezonlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Zamonaviy innovatsion texnologiya sifatida chet ellarda virtual universitet tashkil qilish tan olinmoqda. Virtual ta'lim tarafdorlarining soni borgan sari ortib bormoqda. Mazkur tizim yo'lga qo'yilgan universitetlar AQSh, Angliya, Germaniya, Koreya, Yaponiya kabi davlatlarda bir nechtani tashkil etmoqda. Buning sababi shuki, ta'lim muassasalarida an'anaviy usulda bilim olishga nisbatan masofadan turib bilim olish foydalanuvchilar uchun ham qulay, ham arzon, eng asosiysi foydalanuvchilar o'zlariga ma'qul bo'ladigan vaqtlarda bilim olishlariga imkon beradi.

Tadqiqotda axborot texnologiyalari yoʻnalishi talabalarni oʻz iqtidorini namoyon qilishi va rivojlantirishini qoʻllab-quvvatlash maqsadida iqtidorli talabalarni raqamli kompetentligini rivojlantirish metodikasi masofaviy taʼlimning simultant va multimodal modellarini qoʻllash asosida vacademia.uz muhitidagi V-sinf, V-doska, V-chat va V-simulyatsiya komponentlarini funksional integratsiyalash hamda iqtidorlilikni aniqlovchi motivatsion, innovatsion-tadqiqot, liderlik va tashabbuskorlik mezonlarini baholash darajalariga muvofiqligini taʼminlash asosida takomillashtirilgan (4-rasmga qarang).



**4-rasm. Vacademia.uz virtual taʼlim muhitida oʻqitish**

Virtual doska – bu fizik doskaning funksiyalarini simulyatsiya qiluvchi onlayn yoki dasturiy taʼminotga asoslangan platforma. Bu foydalanuvchilarga raqamli muhitda chizish, yozish va hamkorlik qilish imkonini beradi. Mashhur virtual doska platformalariga Miro, Microsoft Whiteboard, Google Jamboard va boshqalar kiradi.

Virtual chat – virtual universitetda foydalanuvchilarga ular tomonidan yaratilgan 3D avatarlar va 3D dunyolar orqali, boshqalar bilan muloqot qilish imkonini beruvchi

vosita. Virtual chatlar turli platformalar va texnologiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin, oddiy matnli xabarlardan tortib murakkabroq audio va video aloqagacha.

Virtual simulyasiya - deganda real vaziyatlar, jarayonlar yoki tizimlarni takrorlash va simulyasiya qilish uchun kompyuterga asoslangan modellar, simulyasiyalar yoki muhitlardan foydalanish tushuniladi. Ushbu texnologiya jismoniy shaxs yoki hodisaning raqamli tasvirini yaratadi, bu foydalanuvchilarga virtual muhitda muloqot qilish va uni boshdan kechirish imkonini beradi.

